

**VOYAGA YETMAGANLAR O'RTASIDA NAZORATSIZLIK VA
HUQUQBUZARLIKLER PROFILAKTIKASINI AMALGA
OSHIRISHNING O'ZIGA XOSLIGI**

*Komiljonov Shoxruxmirzo Qodirjon o'g'li
Toshkent shahar Jamoat Xavfsizligi xizmati
universiteti mustaqil izlanuvchisi magistri*

Annotatsiya: maqolada voyaga etmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklar profilaktikasini tashkil etish va amalga oshirishda mavjud muammolar, voyaga etmaganlar huquqbazarliklarining sabab va shart-sharoitlari, voyaga etmaganlarning o'ziga xos xususiyatlari, ularga salbiy ta'sir etuvchi omillar hamda ularni bartaraf etish borasidagi tavsiyalar yoritib berilgan.

Tayanch tushunchalar: voyaga etmagan, yoshlar, qonun, nazoratsizlik, jamiyat, oila, shaxs, pedagog, umumiy profilaktika, yakka profilaktika profilaktika ishi, huquqbazarliklar profilaktikasi.

Ma'lumki, mamlakatimizda voyaga etmaganlar huquq va erkinliklarini ta'minlash, ularni qonuniy manfaatlarini muhofaza etish, davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bo'lib, huquqiy demokratik davlat taraqqiyotining rivoji o'sib kelayotgan avlodning ta'lif va tarbiya darjasiga bog'liqdir. Bunga erishish uchun esa avvalo jamiyat a'zolarining, shu jumladan voyaga etmagan va yoshlarning siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy va huquqiy saviyasi yuqori darajada bo'lishi talab etiladi.

Shu boisdan, voyaga etmaganlar huquqbazarligining oldini olishni kuchaytirishga qaratilgan aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirzeyev: «Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lif va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim. Ushbu maqsad yo'lida yoshlarimiz o'z oldiga katta marralarni qo'yib, ularga erishishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish va har tomonlama ko'mak berish – barchamiz uchun eng ustuvor vazifa bo'lishi zarur. SHundagina farzandlarimiz xalqimizning asriy orzu-umidlarini ro'yobga chiqaradigan buyuk va qudratli kuchga aylanadi», - deb

takidlab, voyaga etmaganlarni tarbiyalash va ularni Vatan ravnaqi yo‘lida xizmat qiluvchi shaxs sifatida etishtirish muhim vazifalardan ekanligini ko‘rsatib berdi.

Darhaqiqat mamlakatning kelajagini belgilovchi yoshlar va voyaga etmaganlarning komil inson qilib tarbiyalashda adolat va qonun ustuvorligini ta’minlash, ularga sifatli bilim berish va ularni ilm-ma’rifatli inson bo‘lib shakllanishlariga, eng avvalo, Konstitutsiyani yaxshi bilishi, undagi normalarni o‘rganishi, o‘zining huquqi, burchi va majburiyatlarini to‘la anglashi va ularni hayotda qo‘llay olishiga, yoshlarning huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yuksaltirishiga alohida e’tibor qaratish, ularning kelajakka ishonchini yanada mustaxkamlash davlat rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi vaqtda voyaga etmaganlar va yoshlar huquqbazarligi haqida salmoqli statistik material to‘plangan, uni tahlil qilish metodikasi asosan ishlab chiqilgan va bular ularning jinoyatchiligi va huquqbazarliklarining holatini, uning miqdor va sifat (tarkibiy va boshqa) o‘zgarishlarini ancha aniq baholash imkonini beradi.

Voyaga etmaganlar va yoshlar tomonidan aksariyat hollarda qasddan odam o‘ldirish, o‘g‘irlilik, talonchilik, qasddan badanga og‘ir shikast etkazish, nomusga tegish, bosqinchilik, bezorilik kabi jinoyat va huquqbazarliklar sodir etilishi kriminolog olimlar tomonidan o‘rganilgan. Voyaga etmaganlar va yoshlar huquqbazarligi kattalar huquqbazarligi bilan bir xil sabablarga ega, biroq ularning ta’sir ko‘rsatish mexanizmi ancha farq qiladi. Bu sabablar shaxsning shakllanishiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Har bir voyaga etmagan tarbiyasi og‘ir shaxsning xulq-atvori o‘ziga xosdir, u o‘smir shaxsi shakllanishining ob’ektiv va sub’ektiv omillari bilan belgilanadi. Bu tarbiya va profilaktika ishlarida individual yondashuv etakchilik qilishi lozimligini anglatadi.

Yakka tartibdagи profilaktika ishi — ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan voyaga etmaganlar va oilalarni o‘z vaqtida aniqlash, shuningdek ularni ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya qilish hamda voyaga etmaganlarning huquqbazarliklar yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etishining oldini olishga doir faoliyatdir.

Bizga ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasining «Ichki ishlar organlari to‘g‘risida», «Huquqbazarliklar profilaktikasi to‘g‘risida» hamda «Voyaga etmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida»gi qonunlari bilan davlatimiz vakolatli idoralari tomonidan Ichki ishlar organlariga voyaga etmaganlar o‘rtasida huquqbazarliklar profilaktikasini amalga oshirish vazifasi yuklatilgan.

Voyaga etmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklar profilaktikasi bu ijtimoiy faoliyat bo‘lib, jamiyat rivojlanishi va boshqa ijtimoiy holatlar bilan o‘zaro aloqadorlikda bo‘lib, o‘z o‘rniga ega. Xuddi shu ma’noda, bu jarayonda

yakka tartibdagi (individual) profilaktikani ijtimoiylashuvi jarayonining bir qism sifatida qarash kerak.

Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 3 avgustdagи «Voyaga etmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori asosida huquqbazarliklar profilaktikasi bo'linmalari voyaga etmaganlar va yoshlar o'rtasida huquqbazarliklar profilaktikasini tashkil etish guruhlari hamda voyaga etmaganlar masalalari bo'yicha inspektor psixologlar tamonidan voyaga etmaganlar o'rtasida huquqbazarlik va jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan faoliyatni kuchaytirish maqsadida ichki ishlар organlarining voyaga etmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlari faoliyatini tashkil etish, nazoratsiz va qarovsiz qolgan voyaga etmaganlarni aniqlash, ularni voyaga etmaganlarga ijtimoiy huquqiy yordam ko'rsatish markazlariga qabul qilish, saqlash va voyaga etmaganlar bilan yakka tartibda profilaktik ishlар olib borish tartibi belgilandi. SHuningdek, voyaga etmaganlarning nazoratsizligi, qarovsizligiga, ular tomonidan huquqbazarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xattiharakatlar sodir etilishiga imkon beradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etishga qaratilgan, yakka tartibdagi profilaktika ishi bilan birgalikda amalga oshiriladigan ijtimoiy, huquqiy, tibbiy va boshqa chora-tadbirlar tizimining asosiy vazifalari belgilab berildi.

Xususan, I.Ismailov «voyaga etmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklar profilaktikasi – davlat hokimiyyati organlari, huquqbazarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi, unda ishtirok etuvchi davlat organlari va muassasalari hamda fuqarolik jamiyatni institutlarining ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lган voyaga etmaganlar va oilalar, ularning jinoiy faoliyatga jalb etuvchi shaxslarni aniqlash, ular sodir etayotgan jinoyatlarning sabab va sharoitlarini bartaraf etish, shuningdek ular yashayotgan va ta'lim olayotgan joylarda ijtimoiy-ruhiy muhitni sog'lomlashtirish maqsadida amalga oshirilayotgan tarbiya, ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish, ijtimoiy-huquqiy nazorat vositalari orqali profilaktik ta'sir choralarini qo'llashdan iborat davlat siyosati darajasida amalga oshiriladigan alohida faoliyat», shuningdek «voyaga etmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklar profilaktikasi – voyaga etmaganlar tomonidan qonun bilan taqiqlangan ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etilishini taqozo etuvchi sabab va sharoitlarni keltirib chiqaruvchi, oziqlantiruvchi, jamiyatda ijtimoiy hodisa sifatida uning bo'lishini taqozo etuvchi hodisa, voqeа, jarayonlarni kamaytirish, zararsizlanadirish, cheklash va bartaraf etish bo'yicha davlat siyosatini belgilash va uni amalga oshirish hamda takomillashtirishga qaratilgan kompleks ijtimoiy-huquqiy jarayon» deb hisoblaydi.

Davlatchilik vujudga kelgan davrlardan boshlab hukmron doiralar fuqarolarni turli yo'llar bilan tarbiyalash, ularning o'zлari ishlab chiqqan qonun va

qoidalarga amal qilishlariga majbur etib kelganlar va o‘z navbatidaadolatsiz bo‘lsada o‘sha zamonning o‘ziga xos bo‘lgan huquqiy xulqni shakllanishida rol o‘ynagan. SHuning uchun shaxsning ijtimoiylashuvi unda axloqiy sifatlar va huquqiy ongni shakllantirishni keltirib chiqaradi. Bu jarayonlar shaxsni jamiyatda o‘rnatilgan qoidalalar va tartiblarga rioya qilishi va moslashashishini ta’minlaydi.

Ammo, har qanday davrda ham voyaga etmaganlarning davrga yoki qoidalarga moslashishi jarayoni ularga qanday ta’sirni ko‘proq qo‘llash bilan bog‘liqdir. Masalan, ularni qanday tarbiyalash hamda qanday ruhda o‘stirishga bog‘liq. SHuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, har qanday shaxsni o‘zi unib o‘sgan mamlakati, millatining urf-odatlari asosida tarbiyalash, shu bilan birga o‘zga millatlarning odatlarini hurmat qilish ruhida tarbiyalash ularni komil inson etib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi, vaholanki, o‘z halqini seuvurchi va o‘zga millatlarni hurmat qiluvchi shaxsgina huquqbuzarlik sodir etmaydi, atrof muhitga doimo hurmatda bo‘ladi.

SHu o‘rinda, Turkiston ma’rifatparvari, mutafakkir, pedagog va axloqshunos Abdulla Avloniy: “o‘gay tarbiyadan” ko‘ra milliy tarbiyamiz usullarini yangilashni afzal biladi va va o‘z davrini “Tarbiyaning zamoni – tarbiyaning ayni vaqt” deb ataydi. Uning bu boradagi qarashlari hanuz o‘z kuchini yo‘qotganmaganligini, tarbiya – hozir ham jamiyat uchun dolzarb muammo ekanligini ko‘rish mumkin. O‘z navbatida Abdulla Avloniy: “Tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir”, deb ta’kidlab o‘tib, oila va undagi tarbiya har bir yosh uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan muhim tamoyillardan biri ekanligini, tarbiyaning voyaga etmaganlarning huquq va axloq normalariga rioya qilishini ta’minalashda, shuningdek, ular tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklar sodir etilishini oldini olishda muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatib o‘tgan.

Demak, voyaga etmagan shaxslarda g‘ayriijtimoiy hulq-atvor shakllanishida uni o‘rab turgan tashqi va ichki muhitdagi salbiy ta’sirlar rol o‘ynaydi va aynan shu salbiy ta’sirlar voyaga etmaganlar tomonidan huquqbuzarliklar sodir etilishiga olib keladi.

Voyaga etmaganlar tomonidan huquqbuzarliklar sodir etilishi shart-sharoitlaridan kelib chiqib ularni quyidagi ikkita turga ajratish mumkin:

1. Tashqi shart-sharoit, jamiyatdagi salbiy ijtimoiy illatlarning mavjudligi, xususan, giyohvandlik va surunkali ichkilikbozlik, “ommaviy madaniyat”, ekstremizm va terrorizm;
2. Ichki shart-sharoit, xususan, oiladagi salbiy muhit, oila a’zolaridagi yomon hulqning salbiy ta’siri va boshqalar.

Voyaga etmaganlar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklarning turlariga qarab ularning qanday muhitda o‘sganligini aniqlash mumkin, shu boisdan voyaga

etmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklar profilaktikasini tashkil etishda va bu jarayondani mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni barataraf etishda avvalo huquqbazarliklarni o'rganish maqsadga muvofiq.

Voyaga etmaganlar tomonidan sodir etiladigan huquqbazarliklar tahlil etilganda ularning quyidagi alohida ko'rinishlariga e'tibor berish lozim:

1. Jamoat tartibi va ahloqiy talablarni buzish (noahloqiy xulq-atvor).
2. Turli hildagi mayda qonunbazarliklar (qonunga xilof xatti-harakat).
3. Qonuniy talablarni buzish, jinoyat sodir etish (jinoiy xatti-harakat)

kabilar.

Shu tufayli jamiyatga zid xulq-atvorni barcha turlarini bir biri bilan uzviy bog'liq va qoidaga binoan bir biriga sababchidir. Shuning uchun huquqbazarliklarning va huquqbazarliklarning oldini olish samaradorligini oshirishda, unga sharoit yaratayotgan, jamiyatga ziyon etkazayotgan sabablar bilan kurashni kuchaytirish zarur.

Voyaga etmaganlarning o'ziga xos xususiyatlardan eng muhimi shundaki, oilada va maktab jamoasida o'z o'rnini topa olishi nihoyatda murakkabdir, shu bois ham ular tomonidan sodir etiladigan huquqbazarliklar quyidagi omillarni bir - biriga ta'siri natijasida vujudga keladi:

1. Tashqi muhitning voyaga etmagan o'smirlarga bo'lgan ta'siri;
2. Voyaga etmagan o'smirning shaxsi;
3. Voyaga etmagan o'smirlarning jamoada tutgan o'rni.

Voyaga etmaganlar o'rtasidagi huquqbazarliklarga moyillarining ijtimoiy ehtiyojlar, qiziqishlar, moddiy yo'nalishlar bir-biriga o'xshash bo'ladi, ularni qonunga zid ishlar qilish bilan to'ldirmoqchi bo'ladilar.

Yuqoridagi omillarni hisobga olgan holda voyaga etmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklar profilaktikasini tashkil etish va amalga oshirishda ichki ishlar organlari, bolalar masalalari bo'yicha milliy komissiyalar, mutaxassislar, ta'lim muassasalari o'zaro hamkorlikda zaruriy chora-tadbirlarni amalga oshirishlari maqsadga muvofiq.

Oila muhiti va tashqi muhit voyaga etmaganlarning shaxsiga nihoyat darajada tez ta'sir qiladi, bunday ta'sir qilish natijasida voyaga etmaganlarda jamiyatga zid bo'lgan quyidagi salbiy hislatlar shakllanib borishida katta o'rinni egallaydi.

Voyaga etmagan huquqbazarlar oilalari tuzilmasida ijobiy oilalar katta o'rin tutadi. Ulardan taxminan 60 foizidan kam ilg'anadigan bolalar tarbiyasi xatolari ko'rinadi: 34,5 foiz oilalarda bolani doimo asossiz erkalashadi, 26,2 foiz oilada esa bolani mustaqilligidan va oila muammolaridan ajratilgan. O'rganilgan oilalar moddiy ahvol yaxshi. Faqat, 12-13 foiz oilalarda moddiy kamchiliklar bor. Qolgan oilalarda hamma narsa etarli, ularning ko'pchiligidagi moddiy ehtiyojlar

ma'naviyalaridan ustun qo'yilib, shu orqali bolalarning qimmat narsalarga bo'lgan ehtiyoji qondiriladi.

Oila tomonidan nazoratsiz qolish, o'quv tarbiya jamoasini ta'siridan tushib qolish yoshlarda javobgarsizlik va beboshlik hissini mustaxkamlaydi. Voyaga etmaganlar huquqbazarliklarini oldini olishning zamonaviy sharoitida asosiy diqqat e'tibor, voyaga etmaganlar tomonidan sodir etiladigan huquqbazarliklarning oldini oluvchi dastlabki profilaktika masalalariga qaratilgan bo'lishi kerak.

Ma'lumki bolalar nafaqat dars jarayonida, balki darsdan tashqari vaqtarda ham ta'lim-tarbiya ta'siri ostida bo'lishlari kerak. Shu sababli ta'lim muassasalari turar joylarda pedagogik markazlarga aylanib, bolalar qanday yashayotganliklari va ular bo'sh vaqtlarini qanday o'tkazayotganliklari borasida javobgarlikni o'z zimmalariga olishlari zarur. Tahlil etilgan ijobjiy natijalar shundan dalolat beryaptiki, qaerda pedagogik jamoalar tamonidan bunday javobgarlikni o'z zimmlariga olib o'quvchilani bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etgan bo'lsalar, o'sha erda qonunbazarliklar juda kam sodir etiladi.

Voyaga etmaganlarning shaxsini shakllantirishda va huquqbazarlikning oldi olishda pedagogik usullarni o'zgarishlarga moslab borish va pedagogik savodsiz oilalar bilan aloqa qilish, ularni mas'uliyatini oshirish muhimdir. Bunda ko'pgina mutaxassislar, jumladan sotsiologlar, pedagog va yuristlarning faolligi talab qilinadi.

Shu boisdan, voyaga etmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklar profilaktikasini tashkil etishda avvalo voyaga etmaganlarga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etishga qaratish, bu boradagi samarali usullarni ishlab chiqish va amaliyatga joriy etish maqsadga muvofiqdir.

SHu bilan birga, voyaga etmagan to'liq ijtimoiy shaxs emasligi, uning rivojlanish bosqichida ekanligini inobatga olib, ular o'rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklar profilaktikasini tashkil etishda ijobjiy xulq-atvorni shakllantirish, salbiy ta'sirni kamaytirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz kerakki, hozirgi paytda voyaga etmaganlar tomonidan sodir etiladigan huquqbazarliklar va huquqbazarliklarning oldini olish dolzarb muammolardan biridir. CHunki kelgusi ishlarning davomchilari aynan o'sib kelayotgan yosh avloddir, ular davlatning kelajagini belgilaydi. Voyaga etmaganlar tomonidan sodir etiladigan huquqbazarliklarning oldini olish uchun, avvalo ularning kelib chiqish sabablarini aniqlashimiz va bartaraf etishimiz maqsadga muvofiqdir. SHuningdek, joylarda umumiyl Profilaktikanunumli foydalanish va bularni yuritishda yoshlar tarbiyasiga bevosita ma'sul shaxslar va tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikni yaxshi yo'lga qo'yilishi ijobjiy natjalarni

beradi. Bundan tashqari huquqbazarlik yoki jinoyat sodir etgan voyaga etmaganlar bilan yakka profilaktik tarbiyaviy ishlarni yuritishda ularning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olib tashkillashtirilishi ham maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 20 dekabrdagi Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga murojaatnomasi.
2. Abdurasulova Q.R. Kriminologiya / Darslik. –T., 2008. –B. 154.
3. Ismailov I. Voyaga etmaganlar jinoyatchiligining kriminologik tavsifi va profilaktikasi // Kriminologiya. Maxsus qism: Darslik / Mualliflar jamoasi. — T., 2015.